

Q. Ibodullayeva

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

S. Rahmonova

Xorijiy filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va ingliz xalq maqollarining xalq orasidagi o‘rni, ahamiyati hamda tarbiya va bilim olishdagi ta’siri haqida so‘z boradi. Maqolada xalq og‘zaki ijodi sifatida maqollarning avloddan avlodga o‘tib, xalq donoligi sifatida rivojlanib borganligi haqida na‘muna va misollar bilan tushuntirib berilgan.

Kalit so‘zlar: xalq maqollari, ko‘chma ma.no, janr, qiyosiy tilshunoslik

Annotation: The article discusses the role and significance of Uzbek and English proverbs among people, as well as their influence on education and upbringing. It explains, with examples, how proverbs have been passed down from generation to generation as a form of oral folklore, developing as a representation of popular wisdom.

Keywords: folk proverbs, figurative meaning, genre, comparative linguistics

Har bir xalqning o‘z madaniyati, ma’rifati, uzoq yillar davomida shakllanib, boyib borayotgan xalq og‘zaki ijodlari mavjud. Shulardan biri maqollardir. Maqollar turli mavzularda bo‘lib, ular insonlarning uzoq yillar davomida ko‘rgan-kechirganlari, tajribalari, bilimlari, his-tuyg‘ulari, kechinmalari asosida yuzaga keladi. Maqollar insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi, fikrni charxlaydi. Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiy va ahamiyatlidir. “Maqollar juda keng ko‘lamda qo‘llanilib ularni qo‘llashda chegara yo‘q. Maqollar bizning dalillarimizni mustahkamlash, umumiy va aniq fikrlarimizni ifodalash, boshqa insonlarni boshqarish yoki ularga ta’sir o‘tqazish, jamiyatdagi illatlarni ko‘rsatib berish vazifasini bajaradi”¹.

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning mavzusi turlicha, keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she’riyatda ham qadimdan mashhur bo‘lib, mavzu jihatdan shu qadar boy, keng va rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me’yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o‘z in’ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo‘qki, u maqollarda o‘z aksini topmagan bo‘lsa. Maqollar o‘z navbatida pedagogika sohasida, ya’ni ta’lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, biz ulardan o‘z o‘rnida unumli va o‘rinli foydalansak yaxshi samara beradi.

¹ Axmedova.U.K. Ingliz va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch, 2014.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

Insonlar bir birlari bilan muloqat jarayonida o'z fikrlarini ifodalash, va ta'sirliroq ko'rsatish uchun xalq maqollaridan ko'p foydalanadi. Bu narsa kishi nutqini go'zal, jozibali va ishonchli bo'lishida yordam beradi. Masalan farzand tarbiyasi haqida shunday bir fikr bor: "Sen farzandingni tarbiyalama, avval o'zingni tarbiya qil. Farzandingga biror bir xato ishni qilmaslikni qancha uqtirsang ham o'sha ishni o'zing qilsang, farzanding sen kabi shu ishni qilaveradi. Farzand - ota-onaning oynasidir".

Ingliz xalq maqollari ham xuddi o'zbek xalq maqollari singari g'oyat mukammal va xalq og'zaki ijodining eng sara namunalaridan biridir. Ingliz folklorshunosligida o'zgacha o'rin egallagan bu janr, o'zbek adabiyotida ham ko'plab tadqiqotlarda tahlil qilingan. O'zbek folklorshunosligida maqollar ustida izlanishlar XIX asrdan boshlangan bo'lib: Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ulom Zafariy, Mansur Afzalov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzayev, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov kabi oloimlar asosan maqollarni yig'ib ularni to'plam holatiga keltirish ishlarida o'z hissalarini qo'shganlar. Keyinchalik maqollarning ichki strukturaviy tuzilishi va boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish ya'ni maqollar bo'yicha tarjimashunoslik ishlari boshlangan. Bu o'rinda M. Abdurahimov, K.Karomatova, H.Berdiyurov, R.Rasulovlarning o'rni beqiyosdir.²

Bilamizki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayoni bilan birga olib boriladi. Bog'cha va maktablardan boshlab bolalarga bilim olishga havas tuyg'usi shakllantiriladi. Ularda vaqt o'tgan sari bilim olishga qiziqish, ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdillik, o'z Vataniga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g'urur, sabr, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo'ladi. Albatta, bu jarayonda xalq maqollarining o'rni beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi ko'plab yomon odatlarni: dangasalik, qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan maqollarni o'zbek-ingliz tillari misolida tahlil qilish bugungu kunda qiyosiy tilshunoslik, zamonaviy tilshunoslik tadqiqot obyekti sifatida atroflicha o'rganilgan. Ko'plab tadqiqotlarda bu masalaga tadqiqotchilar umumiy yondashganlar. Ushbu tadqiqotimizda ilm olish, hunar egallash mavzusidagi maqollar qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Quyida bilim olish mavzusidagi maqollarning o'zbek va ingliz tilidagi variantlarini ko'rib chiqamiz.

Avval bil, keyin qil. Avval o'rgan, keyin o'rgat.

Bu kabi maqollar kishi ko'proq o'rganish kerakligini anglatadi. Ingliz tilida ham shu kabi maqollar mavjudligini

Learn first then teach. Study well first and then do it.

Aql ko'pga yetgazar

Bilim — aql chirog'i.

Bilim baxt keltirar.

Bilim — davlatdan qimmat.

² S. Shermamatova, Y. Mamadaliyeva. O'zbek va ingliz maqollarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zbek tilidagi ekvivalentlari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 488-499-b

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

Hayot sinovlaridan o'tgan bunday ibratli maqollar inson o'z hayot yo'lini to'g'ri topishiga undaydi. Tarjimalarda, yoki boshqa tillardagi maqollarni o'rganyotganimizda mazmunan shu maqollarga yaqin maqollar mavjudligining guvohi bo'lamiz.

The mind is enough for many

Knowledge is the lamp of the mind.

Knowledge brings happiness.

Bilib baxt keltirishi haqidagi qarashlar nafaqat ingliz va o'zbek tillarida, balki, boshqa ko'plab xalqlar tillarida ham mavjud. Insoniyat bilim bilan yuksala olishi haqidagi maqollar, fikrlar ham ko'plab uchraydi. Inson har tomonlama komil inson bo'lib yetishish uchun yuksak g'oyalar va imkoniyatlar kerak bo'ladi. Xalq og'zaki ijodida shu mazmunni ifadolovchi maqollar ham mavjud.

A great ship asks deep waters.

Kuchli eman daraxtini ham hattoki kichik-kichik zarbalar bilan ohir oqibatda yiqilishi mumkinligi, ya'ni sabr-qanoat bilan ish qilinsa albatta uning rohati bo'lishi, g'am va mashaqqatlarning tugashi tasvirlangan. Ushbu maqolda daraxtning misol sifatida olinishi, eman Angliya ramzi ekanligi va u yerda bu daraxt ko'p uchrashidan ham dalolat beradi. Maqollarning paydo bo'lishida hudud va iqlimlarning, turmush tarzining ham ahamiyati katta.

Little strokes fell great oaks.

Bilagi zo'r birni yiqar,

Bilimi zo'r - mingni.

Bilim-kuchda,

Kuch-bilimda.

Xalq birlashgandagina katta kuchga aylana olishi va birlashib, hamjihatlikda ish qilishlikning samarasi katta ekanligi maqollarda yaqqol seziladi. Ingliz tilida ham shu mazmundagi maqollarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

Excellent knowledge - defeat a thousand

Knowledge is power.

Bilim rosdan ham kuch-qudrat demakdir. Bilim bilan inson gullaydi. Orzulariga erishadi. Hayotda olgan bilimlarini to'g'ri qo'llay bilgan inson hech qoqilmay yashay olishi mumkin.

Bir yigitga qirq hunar oz.

Bilimli-olim.

Bilimsiz-o'ziga zolim.

Bilim bilan dunyo yorug'.

Bilimsizga-qorong'u.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

Kishi qanchalik ko'p bilgani sari, bilmagani shunchalik ko'p ekanligini anglab borishi haqida ham o'zbek maqollari juda ko'p. Turli hunarlarni yaxshi o'rgangan kishilar boshqalarni teran kuzata oladi. Hato va kamchiliklarini boshqalarga qaraganda yaxshiroq ko'ra oladi. Ingliz xalq og'zaki ijodida ham bunday mazmundagi maqollarni ko'plab uchratishimiz mumkin. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari hadislarida ham o'z aksini topganligining guvohi bo'lamiz. Imom Buxoriy hadislarida quyidagi jummalarni uchratamiz: "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q, va hechqachon bo'lmagay"

Biz ilm va uning mohiyati to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, o'rganuvchi, ilm oluvchining ilmga bo'lgan mehri, e'tibori katta ahamiyatga egadir. Chunki ilm insonni komillikka yetkazish, va hayot so'qmoqlaridan to'g'ri yo'l topib o'tishi uchun, dunyodan ibratli yashab, insonlarga foydasi tegadigan shaxs bo'lib

"O'zbek xalq maqollari" to'plamida 70 ga yaqin mavzu bo'yicha xalq maqollari keltirilgan bo'lib, biz asosan kundalik hayotda eng ko'p uchraydigan va ilm o'rganish mavzusi jihatidan bir-biriga o'ta yaqin bo'lgan maqollarni bir mavzu doirasida olishga qaror qildik.

Forty skills are not enough for a young man.

Knowledgeable - scientist.

Ignorant is a tyrant.

The world is bright with knowledge

O'zbek xalq ijodida ilm olish haqida quyidagi mislollar mavjud:

Ilm — aql bulog'i,

Aql — yashash chirog'i.

Ilm olish — nina bilan quduq qazish.

Aynan ushbu maqollarning inglizcha variant sifatida quyidagi misollarni tahlil qilamiz:

Knowledge is the source of intelligence.

The mind is the lamp of life.

Learning is digging a well with a needle.

Ilm kishilarning yo'l ko'rsatuvchi mayog'idir. Ko'plab g'am-tashvishlar ko'pincha ilmsizlik ortidan keladi. Ilmga bo'lgan e'tibor azal-azaldan har bir millatda, xalqda qadrlangan. Kishining bilim olishi, komillikka intilishi, salohiyatli fuqaro bo'lib ulg'ayishi, el-yurt manfaati uchun xizmat qilishi va ilm fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi, olingan ilm doim ezgulikka hizmat qilishi kerakligini chuqur his qilib bunga amal qilishi hamma zamonlarda dolzarb sanalgan ahamiyatli burchdir. Bu mavzu o'zbek va ingliz tilidagi quyidagi maqollarda o'z aksini topgan:

Ilm olishning erta-kechi yo'q.

Ilm topmay, maqtanma.

Ilm-tubsiz quduq.

Ingliz tilida kishilarning bilim olishga bo'lgan e'tibori quyidagi maqollarda o'z aksini topgan:

It is not too early or too late to learn.

Don't boast without learning.

Science is a bottomless well.

Ilm olishning qiyinchiliklari bor. Lekin, shu bilan birga undan keladigan rohat ham bordir. Biz o'zaro muloqat jarayonida o'z qarashlarimizni, fikrimizni yaxshi tushuntirish, dalillash uchun xalq maqollaridan ko'p foydalanamiz. Bu narsa bizga fikrimizni tiniq, nutqimizni go'zal, jozibali va ishonchli bo'lishida yordam beradi. Shulardan biri, farzand tarbiyasi haqida shunday bir fikr bor: "Sen farzandingga aytma, nimanidir bajarishga undashdan oldin o'zing o'rnak bo'l! Farzandingga biror bir xato ishni qilmaslikni qancha uqtirsang ham o'sha ishi qilaverishi mumkin, qachonki, o'zimiz o'rnak bo'lmaganimizcha. Ota-ona telefondan ko'p foydalansa-yu farzandiga sen kitob o'qi deyilsa, farzand uchun kitobdan ko'ra telefon qiziqroq bo'lib tuyulaverishi mumkin.

Ilm- egarlangan ot,

Bilganga-do'st,

Bilmaganga- yov.

Ingliz tilida:

science is a saddled horse,

A friend who knows

the one who doesn't know is the enemy.

Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmas maqolini ingliz tilida knowledge cannot be acquired without hard work tarzida xalq og'zaki ijodida uchramiz.

Tabiiyki, ilm inson qalbiga kuch va go'zallik, tarbiya beradi, ma'naviy-ruhiy dunyosini yoritib go'zallashtiradi. Komillikka yetaklaydi. Insonni yuksak martabaga ko'taradi. "Ilm" so'zi oddiy o'qish-yozishdan boshlab, cheksiz borliq haqiqatini, insoniyatning aqliy mohiyatini anglash, bilish kabi qator tushunchalarni o'zida jamlaydi. Garchi ilmga mohiyat e'tibori bilan diniy va dunyoviy tarzda tasnif berilsa ham, ular orasida, aynan inson ma'naviyatiga aloqadorligi jihatidan, ziddiyat yo'q. Aksincha, biri ikkinchisini taqozo etadi, to'ldiradi, mukammallashtiradi. Ilm yo'lidan yurgan jamiyat hamisha gullab yashnagan. Hayot prinsplarini to'g'ri tanlagan holda taraqqiyotga erishganlar ham ilm tufayliginadir. Bu mavzuda o'zbek va ingliz tilida quyidagi maqollar mavjud:

Kitob ko'rmagan kalla- Giyoh unmagan dala.	A person who has not seen a book - An uncultivated field.
Kitobsiz aql-qanotsiz qush	A mind without a book is a bird without wings
Ilmning avvali achchiq, So'ngi — totli	The beginning of my knowledge is bitter, The last one is sweet
Ilmsiz bir yashar,	Ignorance lives only once,

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

Ilmli ming yashar	A scholar lives a thousand times
Ko'rib bilish yaqinni, O'qib bilish uzoqni	A person understands by seeing what is nearby and learns about the distant one
Tikansiz gul bo'lmas, Mashaqqatsiz-hunar	There is no flower without a thorn
Uchqundan qo'rqan temirchi bo'lmas	There is no blacksmith who is afraid of sparks
Uchishga qanot kerak, O'qishga-toqat	You need wings to fly Studying requires patience

Jadvaldan ko'rib turganingizdek, o'zbek xalq maqollarida uchraydigan bilim olish haqidagi maqollarning deyarli barchasi ingliz xalq maqollarida uchraydi. Fikrimizning isboti sifatida yuqorida o'zbek xalq maqollarida uchraydigan maqollarning inglizcha muqobil variantini keltirib o'tishga harakat qildik

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Bu kabi misralarni yozgan ulug' shoir va mutaffakir Navoiy fikri bilan aytganda, ilm oz-ozdan yig'ilib tog' bo'ladigan tuganmas boylikdir. Insonning umr yo'li ilm bilan yorishadi, gullaydi. Ilm – eng yxshi amaldir, chunki u ikki dunyo saodatining kalitidir. Inson ilm va ma'rifat bilangina chinakam hayotda yashaydi. Insonning hayotini to'g'ri yo'lga solmagan, uning fe'l-atvorida, hulqida, amalida ta'siri bilinmagan, to'g'ri yo'lga yetaklamagan ilm da yaxshilik, bo'lmaydi. . Shuning uchun o'rganilgan emas, amal qilingan ilm haqiqiy ilm sanaladi. O'qigan, bilganiga, o'rganganiga amal qilmagan odam bilmning oddiy sotuvchisi bo'lib qoladi xolos.

Insoniyat borki, ilm bilan yuksalgan. Imom Gazzoliyning so'zi bilan aytganda "Ilmning avvali sukut, so'ng eshitish, so'ng yod olish, so'ng amal qilish, so'ng uni tarqatish demakdir". Darhaqiqat, ilm unga amal qilish bilan yuksaladi, butun bo'ladi. Bu kabi mavzular o'zbek va ingliz tili xalq og'zaki ijodida ham ko'plab uchraydi. Yuqorida berilgan misollar orqali o'zbek-ingliz tilida mavjud bo'lgan maqollar mavzu jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari ilmga bo'lgan e'tibor, ilm egallashga bo'lgan qiziqish har ikkala xalqning umuminsoniy xususiyatlari sifatida e'torof etildi. O'zbek va ingliz xalq maqollarida mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash maqollarning ekvivalentlarini topish mumkin. Har qanday mavzudagi maqolni olmag, u har ikkala tilda o'z muqobil variantiga egadir. Buning asosiy sababi shuki, barcha insoniyatga xos xislatlar hamma millatga xosligidadir. O'zbek va ingliz tilidagi maqollar til egasi bo'lmish xalqning tarixiy, ma'naviy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi. Ingliz va o'zbek maqollari mavzusini o'rganish jarayonida o'zbek maqollarida uchraydigan ilm egallash mavzusidagi maqollarni ingliz xalq og'zaki ijodida ham uchratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova.U.K. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch, 2014. 41-bet.
2. S. Shermamatova, Y. Mamadaliyeva. O'zbek va ingliz maqollarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zbek tilidagi ekvivalentlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 488-499-b

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON,2024

3. Mirzayev T. Uzbek xalq maqollari (Uzbek folk Proverbs), available at: www.ziyouz.com kutubxonasi
2. The Oxford Dictionary of Proverbs. Edited by Jennifer Speake. Fifth Edition. Oxford University Press, 2007, 2611 p.
4. Ingliz va o'zbek maqollari haqida nazariy qarashlar. Raxmatullayeva S.J.77-b
5. Axmedova.U.K. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch, 2014